



TEMIR YO'L TRANSPORTIDA POYEZDLAR HARAKATI XAVFSIZLIGINI  
BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**To'xtaxo'jayeva Mafratxon Maxmudovna**

*Toshkent Davlat Transport Universiteti "Temir yo'ldan foydalanish  
ishlarini boshqarish" kafedrasida katta o'qituvchisi.*

*E-mail: [mafirat.toxtaxodjayeva.66@mail.ru](mailto:mafirat.toxtaxodjayeva.66@mail.ru)*

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada emir yo'l transportida poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan. Poyezdlar harakati xavfsizligi temir yo'l transporti faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida tahlil qilingan hamda harakat xavfsizligi buzilishlari oqibatida yuzaga keladigan texnik, iqtisodiy va ijtimoiy zararlar yoritilgan. 2023-2025-yillar davomida sodir bo'lgan harakat xavfsizligi buzilishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida tahlil o'tkazilgan. Tadqiqotda harakat xavfsizligini ta'minlashda inson omili, personalning kasbiy tayyorgarligi, texnologik intizom va texnik vositalarning soz holatda saqlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, harakat xavfsizligini oshirish maqsadida profilaktik ishlarni kuchaytirish, xodimlarni muntazam o'qitish, nazorat tizimini takomillashtirish va zamonaviy texnik vositalarni joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *temir yo'l transporti, poyezdlar harakati xavfsizligi, inson omili, transport xavfsizligi, harakat xavfsizligi buzilishlari, texnologik jarayon, temir yo'l infratuzilmasi, signalizatsiya va aloqa tizimlari, profilaktik chora-tadbirlar, texnik vositalar, tashish jarayoni, xavfsizlikni boshqarish.*


Poyezdlar harakati xavfsizligi – temir yo'l transporti faoliyatini baholashdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri.

Temir yo'l transportining barqaror faoliyati, yo'lovchi va yuklarni tashishni tashkil etishni yaxshilashning muhim ko'rsatkichi va asosiy omili poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash darajasi hisoblanadi. Uning buzilishi oqibatida insonlar hayoti va sog'ligiga xavf tug'iladi, davlatga katta miqdorda moddiy zarar yetkaziladi, yuk yaroqsiz holga keladi, qimmatbaho texnika vositalari ishdan chiqadi [1].

1-rasm va 1-jadvalda 2023-2025-yillar davomida harakat xavfsizligi buzilishlari natijasida yetkazilgan zarar miqdori bo'yicha statistik taqqoslama ma'lumotlar keltirilgan [3].



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



**1-rasm. Poyezdlar xarakati xavfsizligini buzilishi zarar miqdorida, mln.sum**

### 1-jadval

#### Yo'l korxonalari

Xo'jaliklar nomi	3 yil davr uchun			
	2023	2024	2025	Jami
L	2		3	5
TCH Uzbekiston	10	8	6	24
TVSRZ			2	2
Vr		1	1	2
TRZ	1	1		2
Shargunkumir		1		1
Metro	1			1
<b>Jami</b>	<b>14</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>37</b>

Poyezdlar harakati xavfsizligini barcha temir yo'l inshootlari, yo'l, harakat tarkibi, signalizatsiya va aloqa jihozlari, mexanizmlari, hamda qurilmalarini doimiy soz holda saqlash orqali ta'minlanadi [2].

Harakat xavfsizligini ta'minlashda poyezdlar harakatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etadigan personalning tayyorgarligi, tajribasi, o'zini yo'qotmasligi va og'ir sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga tashish jarayonining aniq amalga oshirilishigina emas, asosiysi bu jarayonning xavfsizligi va mustahkamligi ham bog'liq.

Sodir etilgan harakat xavfsizligining buzilish holatlari texnologik jarayon reglamentiga rioya qilmaslik, tashish jarayonida bevosita ishtirok etuvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi, texnologik jarayon va rejayiviy-ehtiyot ishlarini amalga oshirish talablari tizimining darajasi yuqori emasligiga guvohlik berib turibdi.

Tashish jarayonining bevosita ishtirokchilari bilim darajasini, texnik jihozlarni ta'mirlash va ishlatish texnologiyasini doimiy ravishda yaxshilash, jamiyatning barcha xodimlariga harakat xavfsizligi talablarini o'rgatish va mehnatni rag'batlantirishning yangi shakllarini



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



izlash bilan bog'lik rasmiy vazifalarni bajarish nazoratini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash talab etiladi.

Poyezdlar xarakati xavfsizligi holatini tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda qoidabuzarliklarning umumiy soni kamayishi tendensiyasi kuzatilmoqda, ammo asosiy harakat xavfsizligi koidalarining buzilishi xamon inson omili natijasida sodir bo'lishi kuzatilgan va hodisalarning oldini olish uchun profilaktik ishlarni tashkil etish uchun joylarda yetarli choralar ko'rilmagan.

Jamiyatning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish poyezdlar harakati xavfsizligini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarni o'zgartirishni, barcha boshqaruv organlari va jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining nuqsonsiz ishlashi va o'zaro hamkorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuasini joriy etishni talab kiladi.

Temir yo'llardan ko'p yillardan buyon foydalanish natijasida empirik tarzda vujudga kelgan poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash tizimi texnik tarkibiy qismlar – infratuzilmani, harakat tarkibini soz holda saqlash bilan birgalikda boshqaruv jihatlariga ham ta'sir etadi. Boshqaruv jihatlariga faoliyatni nazorat qilish, harakat xavfsizligining buzilish holatlarini tekshirish, javobgarlikni taqsimlash, moddiy ta'minot va h.k. kiradi.

Har bir tizimda bo'lgani kabi, harakat xavfsizligini ta'minlash tizimida ham inson omiliga muhim ahamiyat beriladi. Personal xatolari sonini kamaytirish maqsadida ularni o'qitish uslublarini takomillashtirish va insonning xato harakatlarini oldini oluvchi yangi texnik vositalar ishlab chiqarish, xamda yukoridagi keltirilgan profilaktik ishlarini tulik va siffatli amalga oshirish talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova G.R. The main areas of traffic safety / S.K. Xudayberganov, A.X. Maxkamov, G.R. Ibragimova // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. December 2023-12, ISSN 2181-9750, 93-98 bet.

2. Информационный сайт – Несчастные случаи на производстве [Электронный ресурс]. – URL: [https://www.norma.uz/gazeta\\_norma/neschastnyu\\_sluchay\\_na\\_proizvodstve2](https://www.norma.uz/gazeta_norma/neschastnyu_sluchay_na_proizvodstve2) (дата обращения: 14.02.2026).

3. Информационный сайт – URL: <https://stat.uz/uz/> (дата обращения: 15.04.2026).